

**ROSSIYA VA XITOYNING MARKAZIY OSIYODAGI ENERGETIK  
MANFAATLARI: UMUMIYLIK VA TAFOVUTLAR JIHATLARI**

*UlugʻBek Shukrillayev*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*“Xalqaro munosabatlar” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyodagi energetik strategiyalarining umumiy va farqli jihatlari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki davlatning mintaqaga nisbatan yondashuvi energetik xavfsizlik, geoiqtisodiy manfaatlar, tranzit yoʻlaklari ustidan nazorat hamda siyosiy taʼsirni kuchaytirish nuqtayi nazaridan koʻrib chiqiladi. Maqolada Rossiyaning asosan tarixiy infratuzilma, tranzit tarmoqlari va postsovet makonidagi institutsional taʼsirga tayanuvchi strategiyasi hamda Xitoyning investitsiya, yangi quvur yoʻnalishlari va iqtisodiy pragmatizm asosida shakllanayotgan energetik siyosati qiyosiy tahlil etiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining ushbu jarayondagi oʻrni, ularning koʻp vektorli tashqi siyosati va energetik manevr imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Rossiya va Xitoy strategiyalarining umumiy maqsadlari bir-biriga yaqin boʻlsa-da, ularning amalga oshirish mexanizmlari va mintaqadagi taʼsir usullari sezilarli darajada farqlanishi asoslab beriladi.

**Kalit soʻzlar:** Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo, energetik strategiya, energetik xavfsizlik, geoiqtisodiyot, geosiyosat, tranzit yoʻlaklari, neft va gaz, quvur diplomatiyasi, mintaqaviy taʼsir, investitsiya siyosati.

### **KIRISH**

XXI asrda Markaziy Osiyo global energiya xavfsizligi, transport-kommunikatsiya yoʻlaklari va geoiqtisodiy raqobat uchun eng muhim makonlardan biriga aylandi. Mintaqaning boy uglevodorod zaxiralari, qulay tranzit salohiyati hamda Yevroosiyo markazida joylashgani uni nafaqat mintaqa davlatlari, balki yirik geosiyosiy kuchlar uchun ham strategik ahamiyatga ega hududga aylantirmoqda. Xususan, Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyoga nisbatan yuritayotgan energetika siyosati bu mintaqadagi taʼsir doiralari, hamkorlik mexanizmlari va resurslar ustidan nazorat masalalarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Soʻnggi yillarda “Rossiya – Markaziy Osiyo” va “Xitoy – Markaziy Osiyo” formatlarida energetika, tranzit, infratuzilma va “yashil” rivojlanish masalalariga alohida urgʻu berilayotgani ushbu yoʻnalishning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Bu dolzarblik, bir tomondan, Rossiyaning tarixan shakllangan energetik va infratuzilmaviy ta'sirini saqlab qolish hamda gaz tashish tarmoqlari va mintaqaviy bozorlar ustidan nazoratni kuchaytirish istagi bilan, ikkinchi tomondan esa, Xitoyning energiya importini diversifikatsiya qilish, tashqi ta'minot xavfsizligini oshirish va "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida Markaziy Osiyoni barqaror quruqlikdagi energiya yo'lagi sifatida rivojlantirishga qaratilgan strategiyasi bilan izohlanadi<sup>1</sup>. Jumladan, Rossiya uchun Markaziy Osiyo postsovet energetika makonining ajralmas qismi bo'lib qolsa, Xitoy uchun u g'arbiy yo'nalishdagi xavfsiz va uzoq muddatli resurs bazasi hamda tranzit ko'prigi vazifasini o'tamoqda.

Shu nuqtai nazardan, Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyodagi energetika strategiyalarini qiyosiy tahlil qilish nafaqat ikki davlatning tashqi energetika siyosatidagi ustuvorliklarni aniqlash, balki mintaqadagi kuchlar muvozanati, hamkorlik va raqobatni tushunish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi<sup>2</sup>. Ushbu strategiyalarning umumiy jihatlari asosan energiya xavfsizligini ta'minlash, transport yo'laklarini kengaytirish, energetika diplomatiyasini mustahkamlash va mintaqqa mamlakatlari bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishda ko'zga tashlansa-da, farqli jihatlari ularning geosiyosiy maqsadlari, iqtisodiy vositalari, infratuzilmaviy yondashuvlari va mintaqaga nisbatan institutsional siyosatida yaqqol namoyon bo'ladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyodagi energetik strategiyalarini yorituvchi ilmiy adabiyotlarda masala, asosan, geosiyosiy raqobat, energetik xavfsizlik, tranzit nazorati va mintaqaviy ta'sir mexanizmlari doirasida tahlil qilinadi. Bu yo'nalishda Alexander Cooley, Marlène Laruelle, Sébastien Peyrouse, Tomáš Š. Eder, Christopher P. Freeman, Bin Hu, Qian Zhou kabi olimlarning monografiya va maqolalari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotlarda Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyoga nisbatan yondashuvlari bir tomondan o'xshash strategik manfaatlarga ega ekani, ikkinchi tomondan esa ularning siyosiy vositalari, iqtisodiy usullari va energetik ekspansiya modellari sezilarli darajada farqlanishi asoslab beriladi.

Marlen Laryuelning "Markaziy Osiyoda Rossiya, Xitoy va Hindiston bilan yuzma-yuz: hamkorlik, raqobat va ikkilanishlar" nomli bobida Rossiyaning mintaqadagi strategiyasiga oid muhim fikrlar ilgari surilgan. Uning so'zlariga ko'ra, Rossiya Markaziy Osiyodagi tarixiy ta'sir doirasini saqlab qolishga harakat qiladi va bu jarayonda energetika sektori tranzit nazorati va geosiyosiy mavjudlikni ta'minlash

<sup>1</sup> J. Stern. *Q&A: The Geopolitics of Caspian Gas*. Center on Global Energy Policy, Columbia University. 2023. –P.94-95.

<sup>2</sup> Henderson, J., & Pirani, S. (2014). *The Russian Gas Matrix: How Markets Are Driving Change*. Oxford University Press. –P.23-24.

vositasi sifatida qo'llaniladi. Bunday yondashuv Rossiyaning mintaqadagi strategiyasini ko'proq "mavjud ustunlikni saqlab qolish" modeli sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Tomash Sh. Ederning "Markaziy Osiyoda Xitoy-Rossiya munosabatlari: energetika siyosati, Pekinning yangi qat'iyiligi va XXI asr geosiyosati" monografiyasi Rossiya va Xitoy o'rtasidagi energetika munosabatlarini qiyosiy tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi. Ederning ta'kidlashicha, Xitoyning Markaziy Osiyodagi energetika sohasidagi roli ortib bormoqda va uzoq muddatli istiqbolda Pekin mintaqaning energetika sohasida Rossiyaning yetakchi o'rnini egallashi mumkin. Shu bilan birga, u Rossiya-Xitoy munosabatlarini sof antagonizm sifatida emas, balki raqobat va funksional muvozanat uyg'unlashgan murakkab model sifatida ko'radi. Ederning xulosasi Rossiya va Xitoy strategiyalari o'rtasidagi umumiylik va farqlarni tushuntirishga xizmat qiladi.

Kristofer P. Frimanning "New strategies for the old competition? China-Russia relations after the energy boom in Central Asia" maqolasida energetika omili Rossiya-Xitoy munosabatlarini qayta shakllantirgan asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi. Frimanning so'zlariga ko'ra, Markaziy Osiyodagi energetika masalasi ikki davlat o'rtasidagi an'anaviy raqobatni saqlab qolgan bo'lsa-da, yangi sharoitlarda ular qarama-qarshilikni boshqarishga va ba'zi hollarda manfaatlar to'qnashuvini yumshatishga harakat qilmoqda. Shunday qilib, muallif ushbu mintaqadagi energetika munosabatlarini "raqobat doirasida cheklangan moslashuv" doirasida baholaydi. Shuningdek, Bin Hu va Qian Zhou maqolalarida Xitoyning mintaqadagi faoliyati neft-gaz importini xavfsizlashtirish, CNPC orqali resurs bazasini mustahkamlash va ko'p yo'nalishli eksport-import tizimini yaratish bilan izohlanadi. Bu jihat Rossiya strategiyasidan farqli ravishda, Pekinning yangi energetik yo'laklar barpo etishga urg'u berishini ko'rsatadi.

### **TADQIQOT USULLARI**

Mazkur tadqiqotda Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyodagi energetik strategiyalarining umumiy va farqli jihatlarini aniqlash uchun bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy tahlil usuli asosida ikki davlatning energetik siyosati, ustuvor yo'nalishlari, vositalari va mintaqadagi manfaatlari o'zaro solishtirildi. Bu usul Rossiyaning asosan tranzit va tarixiy infratuzilmaga tayanuvchi yondashuvi bilan Xitoyning investitsiyaviy va resurslarni diversifikatsiya qilishga qaratilgan strategiyasini farqlash imkonini berdi.

Shuningdek, tizimli yondashuv yordamida Markaziy Osiyo energetik makoni o'zaro bog'liq siyosiy-iqtisodiy hudud sifatida o'rganildi. Hujjatli tahlil usuli orqali

rasmiy strategiyalar, xalqaro hisobotlar, statistik ma'lumotlar va analitik manbalar o'rganildi. Tarixiy yondashuv esa Rossiya va Xitoyning mintaqadagi energetik siyosati shakllanish bosqichlarini ochib berishga xizmat qildi<sup>3</sup>. Tadqiqotda, shuningdek, geosiyosiy va geoiqtisodiy tahlil usullari qo'llanilib, energiya resurslari, quvur yo'nalishlari, tranzit imkoniyatlari va mintaqaviy ta'sir mexanizmlari baholandi<sup>4</sup>. Mazkur usullar majmui mavzuni kompleks o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

### MUHOKAMA

Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyodagi energetik strategiyalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikkala davlat uchun ham mintaqada oddiy xomashyo manbai emas, balki geoiqtisodiy, geosiyosiy va transport-logistik ahamiyatga ega bo'lgan strategik makondir. Shu jihatdan ularning umumiy nuqtasi, avvalo, Markaziy Osiyoni uzoq muddatli energetik xavfsizlikni ta'minlash, eksport-import yo'nalishlarini barqarorlashtirish hamda o'zining tashqi siyosiy ta'sirini mustahkamlash uchun zarur hudud sifatida ko'rishida namoyon bo'ladi. Xususan, mintaqadagi gaz va neft resurslari, mavjud quvur infratuzilmasi, shuningdek, Xitoy bozoriga tutash tranzit imkoniyatlari ikki davlat strategiyasining ham markaziy elementiga aylangan<sup>5</sup>. Shu bois Rossiya ham, Xitoy ham mintaqada faqat savdo hamkorligi bilan cheklanmay, balki qazib olish, qayta ishlash, transport, elektr energetikasi va institutsional kelishuvlar orqali uzoq muddatli mavjudlikni mustahkamlashga intiladi.

Biroq mazkur o'xshashliklar ostida strategik maqsad, vosita va usullar bo'yicha sezilarli farqlar mavjud. Rossiyaning energetik strategiyasi tarixan sovet davridan qolgan infratuzilmaviy merosga, quvurlar tarmog'iga, texnologik bog'liqlikka va siyosiy-institutsional ta'sir resurslariga ko'proq tayansa, Xitoyning strategiyasi investitsiya, bozor sig'imi, moliyalashtirish va yangi infratuzilma qurish salohiyatiga tayangan holda shakllangan<sup>6</sup>. Boshqacha aytganda, Rossiya Markaziy Osiyoda "tarixiy mavjudlikni saqlash va qayta faollashtirish" modelini qo'llayotgan bo'lsa, Xitoy "yangi energetik yo'laklar yaratish va ularni o'z ichki bozoriga bog'lash" modelini ilgari surmoqda. Bu farq mintaqadagi quvur tizimlari va shartnomaviy mexanizmlarda ayniqsa yaqqol ko'rinadi.

<sup>3</sup> Yin, R. K. (2018). *Case Study Research and Applications: Design and Methods* (6th ed.). Sage Publications. –P.139.

<sup>4</sup> Denzin, N. K., & Lincoln, Y. S. (Eds.). (2018). *The SAGE Handbook of Qualitative Research* (5th ed.). Sage Publications. –P.231.

<sup>5</sup> S.Pirani. *Central Asian Gas*. Oxford Institute for Energy Studies. 2019. –P. 59.

<sup>6</sup> J.Henderson. *Energy Relations between Russia and China: Playing Chess with the Dragon*. Oxford Institute for Energy Studies. 2016. –P.85-86.

Rossiyaning Markaziy Osiyodagi energetik strategiyasining umumiy mohiyati mintaqani o'zining tarixiy energetik orbitasida ushlab turish, post-sovet hududidagi iqtisodiy-siyosiy ta'sirni kuchaytirish va zarur hollarda mintaqa energiya oqimlarini o'z tashqi siyosiy maqsadlariga moslashtirishdan iboratdir. Bu strategiyada Markaziy Osiyo davlatlari ko'pincha mustaqil energiya markazlari sifatida emas, balki Rossiya bilan o'zaro bog'liq bo'lgan tarmoqning bo'g'inlari sifatida ko'riladi. Oxford Institute for Energy Studies materiallarida qayd etilishicha, Gazprom uzoq vaqt davomida O'zbekiston va boshqa mintaqa davlatlari gazini sotib olish, qayta yo'naltirish va quvur tizimlari orqali o'z strategik ehtiyojlariga moslashtirish amaliyotidan foydalangan. Ayniqsa Central Asia-Centre tizimi Rossiyaning mintaqadagi tarixiy energetik tayanchlaridan biri bo'lib qolgan<sup>7</sup>.

So'nggi yillarda Rossiya strategiyasining yangi qirradi namoyon bo'ldi: Yevropa bozoridagi yo'qotishlar va geosiyosiy cheklovlar fonida Moskva Markaziy Osiyoni nafaqat ta'sir hududi, balki alternativ eksport va tranzit makoni sifatida ham qayta kashf etdi. Columbia University qoshidagi Center on Global Energy Policy tahliliga ko'ra, 2022-yildan keyin Rossiya Markaziy Osiyo bilan energetik aloqalarni kuchaytirib, bir tomondan Yevropadagi yo'qotilgan bozorlar o'rmini qisman qoplashga, ikkinchi tomondan esa mintaqa davlatlarining Rossiya energiyasiga qaramligini oshirish orqali siyosiy ta'sirni mustahkamlashga harakat qilgan<sup>8</sup>. Demak, Rossiya strategiyasi endilikda faqat "resurslarni nazorat qilish" emas, balki "mintaqaning energetik tanqisliklaridan foydalanib, yangi bog'liqlik formatlarini yaratish" yo'nalishiga ham o'tganini ko'rish mumkin.

Buning yaqqol ko'rinishi Rossiya–Qozog'iston–O'zbekiston gaz hamkorligi va Central Asia-Centre quvurlaridagi oqimlarning ayrim uchastkalarda teskari yo'nalishda ishlay boshlaganida namoyon bo'ladi. EIA 2025-yilgi mintaqaviy tahlilida qayd etilishicha, ilgari asosan Turkmaniston gazini Rossiya tomon olib chiqishda qo'llanilgan CAC tizimining ikki liniyasida 2023-yil oktabridan boshlab oqim yo'nalishi o'zgartirilib, Rossiya gazini Qozog'iston orqali O'zbekistonga yetkazish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Bu holat Rossiya strategiyasining moslashuvchan xarakterga ega ekanini, ya'ni u mavjud infratuzilmani yangi geosiyosiy vaziyatga moslab qayta funkcionallashtira olayotganini ko'rsatadi<sup>9</sup>. Shu bilan birga, bu jarayon

<sup>7</sup> Y. Sharifli. Green New Wave: How China Adapts to Central Asia's Renewable Energy Landscape. Carnegie Endowment for International Peace. 2024, April 19. –P.58.

<sup>8</sup> V. Yermakov. Russia's Expanding Energy Ties in Central Asia. Center on Global Energy Policy, Columbia University. 2024, February 29. –P. 36-38.

<sup>9</sup> Eder, T. S. *China-Russia Relations in Central Asia: Energy Policy, Beijing's New Assertiveness and 21st Century Geopolitics*. Springer. –P.41.

Markaziy Osiyo ichki iste'moli, eksport majburiyatlari va Xitoy yo'nalishidagi ta'minot o'rtasidagi murakkab muvozanatni yanada keskinlashtiradi.

Xitoyning strategiyasi esa mazmunan boshqacharoq. Pekin uchun Markaziy Osiyo, avvalo, dengiz yo'llariga qaramlikni kamaytiruvchi kontinental energiya xavfsizligi hududidir. Xitoy Markaziy Osiyo bilan aloqalarda resurslarni siyosiy nazorat qilishdan ko'ra, uzoq muddatli importni kafolatlaydigan quvurlar, sarmoya, kredit, texnologiya va bozor integratsiyasi vositalaridan kengroq foydalangan. CNPC ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyo–Xitoy gaz quvuri bo'yicha tuzilgan kelishuvlar doirasida Xitoy tomoni transchegaraviy quvur qurilishiga sarmoya kiritgan va Turkmanistondan Xitoyga katta hajmdagi gaz yetkazib berish tizimini shakllantirgan<sup>10</sup>. Mazkur quvur tizimi Xitoyning g'arbiy hududlaridan sharqiy sanoat markazlarigacha uzatiladigan ichki quvur tarmoqlari bilan bog'langani sababli Markaziy Osiyo energiyasi bevosita Xitoy ichki iqtisodiy makoniga integratsiyalashgan.

Xitoyning Markaziy Osiyodagi energetik strategiyasining eng muhim ustunligi shundaki, u mintaqani “bir tomonlama qaram periferiya” sifatida emas, balki ko'p bosqichli ta'minot zanjirining tarkibiy qismi sifatida shakllantirishga harakat qiladi. Bunda Xitoy uchun asosiy maqsad – import manbalarini diversifikatsiya qilish, ayniqsa gaz ta'minotida bir necha yo'nalishli xavfsizlik tizimini barpo etishdir. Oxford Institute for Energy Studies tahlilida Xitoy gaz ta'minotida quvur va LNG o'rtasidagi balans, ichki talab o'sishi hamda tashqi manbalarni “kompas” prinsipi asosida diversifikatsiya qilish muhimligi ko'rsatiladi. Markaziy Osiyo shu “kompas”da g'arbiy quruqlik yo'lagi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi<sup>11</sup>. Shu sababli Xitoy strategiyasi Rossiyalikiga qaraganda ko'proq bozor-ratsional, logistika-markazli va istiqbolda texnologik modernizatsiya bilan uyg'unlashgan xarakterga ega.

Ikki davlat strategiyasining umumiy jihatlaridan yana biri – energiyani kengroq geosiyosiy ta'sir vositasi sifatida qo'llashidir. Rossiya uchun energiya tarixan siyosiy bosim, integratsion bog'liqlik va post-sovet makonidagi yetakchilikni saqlash vositasi bo'lib kelgan. Xitoy uchun esa energiya siyosiy bosimdan ko'ra ko'proq “iqtisodiy kirib borish”, “infratuzilmaviy bog'lash” va “uzoq muddatli strategik sheriklik”ning instrumenti sifatida ishlatiladi. Ya'ni ikkala davlat ham energiya orqali ta'sir o'rnatadi, ammo Rossiya ta'siri ko'proq siyosiy-institutsional va tarixiy qaramlikka tayansa, Xitoy ta'siri investitsion va bozor mexanizmlariga tayangan holda ishlab keladi<sup>12</sup>.

<sup>10</sup> Berryman, J. Russia and China in the new Central Asia: The security agenda. In *Russia, Eurasia and the New Geopolitics of Energy*.// related edited volume chapter, Palgrave Macmillan, 2018. pp. 152–172.

<sup>11</sup> *Energy Security along the New Silk Road: Energy Law and Geopolitics in Central Asia*. (2019). Cambridge University Press.

<sup>12</sup> Krapohl, S., & Vasileva-Dienes, A. (2020). The region that isn't: China, Russia and the failure of regional integration in Central Asia. *Asia Europe Journal*, 18(3), 347–366.

Farqli jihatlardan yana biri – mintqa davlatlari bilan munosabat arxitekturasi. Rossiya ko'pincha davlatlararo yaqin siyosiy muloqot, hukumatlararo kelishuvlar, mavjud energetik tarmoqlarni qayta yo'naltirish va tarif-chegirma mexanizmlari orqali ishlaydi. Xitoy esa davlatlararo hamkorlikni saqlagan holda, unga qo'shimcha ravishda milliy kompaniyalar, loyiha moliyalashtirishi, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, EPC shartnomalari va ishlab chiqarish zanjirlarini ham jalb etadi<sup>13</sup>. Shu ma'noda Xitoy strategiyasi ko'proq iqtisodiy institutlashuvga, Rossiya strategiyasi esa ko'proq geosiyosiy institutlashuvga moyildir. Bu, ayniqsa, Xitoy kompaniyalarining Qozog'iston va O'zbekistondagi energetika loyihalarida turli rollarni bajarishi – investor, developer, EPC pudratchi yoki uskunar yetkazib beruvchi sifatida namoyon bo'layotganida yaqqol seziladi.

Muhim farqlardan biri energiya portfeli tarkibida ham ko'rinadi. Rossiya strategiyasi hanuzgacha ko'proq tabiiy gaz, elektr energiyasi, issiqlik-generatsiya quvvatlari va mavjud uglevodorod infratuzilmasini nazorat qilish yoki ularga ulanib qolish modeliga tayanadi. Xitoy esa uglevodorod sektoridagi faoliyatini saqlab qolgan holda, 2018-yildan keyin Markaziy Osiyoda qayta tiklanuvchi energetika – ayniqsa quyosh va shamol loyihalariga faolroq kirib bormoqda. Carnegie tahliliga ko'ra, Xitoy Qozog'iston va O'zbekistondagi yashil energetika ehtiyojlariga moslashib, kreditlashdan tashqari equity financing, uskunar yetkazib berish, lokalizatsiya va yangi sanoat kooperatsiyasi shakllariga o'tgan. Bu holat Xitoy strategiyasining kelajakdagi energetik transformatsiyani hisobga olgan holda moslashuvchanroq ekanini ko'rsatadi<sup>14</sup>. Rossiya esa hozircha mintaqada ko'proq an'anaviy energiya va tranzit geosiyosatiga tayangan ko'rinadi.

Shuningdek, Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyoga munosabatida vaqt ufqi ham turlicha. Rossiya ko'proq qisqa va o'rta muddatli geosiyosiy kompensatsiya logikasida harakat qilmoqda: Yevropa bozoridagi yo'qotishlarni qisman to'ldirish, ortiqcha gaz hajmlarini yangi yo'nalishlarga burish, mintaqadagi ta'sirni zaiflashtirmaslik. Xitoy esa uzoq muddatli talab, ichki sanoat modernizatsiyasi, g'arbiy hududlarni energiya bilan ta'minlash va transport yo'llarini xavfsizlantirish maqsadlariga tayangan<sup>15</sup>. Shu sababli Rossiya strategiyasida vaziyatga tez javob berish va mavjud resurslardan foydalanish kuchli bo'lsa, Xitoy strategiyasida tizimli rejalashtirish va bosqichma-bosqich iqtisodiy chuqurlashuv ustunroq.

<sup>13</sup> Boute, A. Energy Security along the New Silk Road: Energy Law and Geopolitics in Central Asia. Cambridge University Press. 2023.

<sup>14</sup> U.S. Energy Information Administration. *Regional Analysis Brief: Caspian Sea. 2025.* –P.132-133.

<sup>15</sup> Clarke, M. (2020). China, Russia and Central Asia in the era of BRI. In *The Neglected Eurasian Dimension of the 'Indo-Pacific'*. Security Challenges, 16(3), 32–38.

Boshqa tomondan, ikki davlat strategiyasi mintaqa davlatlari uchun bir vaqtning o'zida imkoniyat va xatar manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Imkoniyat shundaki, Rossiya va Xitoy o'rtasidagi raqobat Markaziy Osiyo davlatlariga eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish, qo'shimcha infratuzilma jalb etish va tranzit salohiyatini oshirish imkonini beradi. Masalan, Turkmanistonning Xitoyga gaz eksporti keskin oshgani mintaqaning sharqiy yo'nalishga ochilishining muhim ko'rsatkichidir. EIA ma'lumotlariga ko'ra, Turkmanistonning Xitoyga quvurlar orqali gaz eksporti 2022-yilda 1.2 trln ga yetgan va Line D ishga tushsa, yanada ortishi kutilmoqda. Bu Xitoyning mintaqa uchun muqobil bozor sifatidagi ahamiyatini kuchaytiradi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyodagi energetik strategiyalari mintaqaning geoiqtisodiy va geosiyosiy ахамияти bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har ikki davlat ushbu hududni o'z milliy manfaatlari, energetik xavfsizligi va tashqi siyosiy ta'sirini mustahkamlashning muhim yo'nalishi sifatida ko'radi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Rossiya va Xitoy strategiyalarining umumiy jihati, avvalo, energiya resurslari va transport-kommunikatsiya yo'laklari ustidan barqaror nazorat o'rnatish, mintaqada uzoq muddatli ishtirokni ta'minlash hamda energetika vositasida siyosiy ta'sir doirasini kengaytirishga intilishida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, ularning strategik yondashuvlarida sezilarli farqlar mavjud. Rossiya Markaziy Osiyoda, asosan, tarixan shakllangan infratuzilma, tranzit tarmoqlari va postsovet makonidagi siyosiy-institutsional aloqalarga tayangan holda o'z mavqeini saqlab qolishga intiladi. Xitoy esa mintaqada yangi quvur yo'nalishlari, yirik investitsiya loyihalari, kredit-moliya vositalari va iqtisodiy pragmatizm orqali energetik hamda geoiqtisodiy ishtirokini kengaytirib bormoqda. Demak, Rossiya strategiyasi ko'proq mavjud ustunlikni tutib turish logikasiga asoslangan bo'lsa, Xitoy strategiyasi yangi imkoniyatlar va yangi bog'liqliklar yaratish orqali mintaqaga chuqurroq kirib borish bilan tavsiflanadi.

Sirasini aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari bu jarayonda faqat tashqi kuchlar ta'siridagi obyekt emas, balki Rossiya va Xitoy o'rtasidagi manfaatlar muvozanatini hisobga olib, ko'p vektorli energetik siyosat yuritishga intilayotgan faol subyektlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli mintaqadagi energetik jarayonlarni faqat ikki yirik davlat raqobati doirasida emas, balki mahalliy davlatlarning strategik tanlovi, manfaatlari va tashqi siyosiy manevrlari bilan uzviy bog'liq holda baholash zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. J. Stern. Q&A: The Geopolitics of Caspian Gas. Center on Global Energy Policy, Columbia University. 2023. –P.94-95.
2. Henderson, J., & Pirani, S. (2014). The Russian Gas Matrix: How Markets Are Driving Change. Oxford University Press. –P.23-24.
3. Krapohl, S., & Vasileva-Dienes, A. The region that isn't: China, Russia and the failure of regional integration in Central Asia. *Asia Europe Journal*, 18(3), 2020. –P. 347–366.
4. Yin, R. K. (2018). *Case Study Research and Applications: Design and Methods* (6th ed.). Sage Publications. –P.139.
5. Denzin, N. K., & Lincoln, Y. S. (Eds.). (2018). *The SAGE Handbook of Qualitative Research* (5th ed.). Sage Publications. –P.231.
6. S.Pirani. *Central Asian Gas*. Oxford Institute for Energy Studies. 2019. –P. 59.
7. J.Henderson. *Energy Relations between Russia and China: Playing Chess with the Dragon*. Oxford Institute for Energy Studies. 2016. –P.85-86.
8. Y. Sharifli. *Green New Wave: How China Adapts to Central Asia's Renewable Energy Landscape*. Carnegie Endowment for International Peace. 2024, April 19. – P.58.
9. V. Yermakov. *Russia's Expanding Energy Ties in Central Asia*. Center on Global Energy Policy, Columbia University. 2024, February 29. –P. 36-38.
10. Eder, T. S. *China-Russia Relations in Central Asia: Energy Policy, Beijing's New Assertiveness and 21st Century Geopolitics*. Springer. –P.41.
11. Berryman, J. *Russia and China in the new Central Asia: The security agenda*. In *Russia, Eurasia and the New Geopolitics of Energy*// related edited volume chapter, Palgrave Macmillan, 2018. pp. 152–172.
12. *Energy Security along the New Silk Road: Energy Law and Geopolitics in Central Asia*. (2019). Cambridge University Press.
13. Krapohl, S., & Vasileva-Dienes, A. (2020). The region that isn't: China, Russia and the failure of regional integration in Central Asia. *Asia Europe Journal*, 18(3), 347–366.
14. Boute, A. *Energy Security along the New Silk Road: Energy Law and Geopolitics in Central Asia*. Cambridge University Press. 2023.
15. U.S. Energy Information Administration. *Regional Analysis Brief: Caspian Sea*. 2025. –P.132-133.
16. Clarke, M. (2020). China, Russia and Central Asia in the era of BRI. In *The Neglected Eurasian Dimension of the 'Indo-Pacific'*. *Security Challenges*, 16(3), 32–38.